

See discussions, stats, and author profiles for this publication at: <https://www.researchgate.net/publication/341987680>

ЖАЪФАР ХОЛМУМИНОВ. ВАҲДАТ УЛ-ВУЖУД ФАЛСАФАСИ ВА НАҚШБАНДИЯ ТАРИҚАТИ: трансформацион жараёнлар ва ўзига хос жиҳатлар. / Джафар Холмуминов. Философия Вахдат уль-вуджуд и ордена Н....

Article · June 2020

CITATIONS

0

READS

2,698

1 author:



Жаъфар Мухаммадиевич Холмўминов

Ташкентский государственный университет востоковедение

85 PUBLICATIONS 1 CITATION

[SEE PROFILE](#)

Some of the authors of this publication are also working on these related projects:



Современная узбекская литература [View project](#)



Восток и Запад: межкультурные диалоги. [View project](#)

ISSN 2181-922X

UZBEKISTAN

LANGUAGE AND CULTURE

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

2019 Vol.3

ALISHER NAVO‘I TASHKENT STATE UNIVERSITY OF THE UZBEK
LANGUAGE AND LITERATURE

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o'rinbosari: Zaynobiddin Abdirashidov

Mas'ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Baxtiyor Nazarov, Naim Karimov, Nizomiddin Mahmudov, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Nurboy Jabborov, Baxtiyor Mengliyev, Uzoq Jo'raqulov, Ulug'bek Hamdamov, G'aybulla Boboyorov, Qosimboy Ma'murov, Karomat Mullaxo'jayeva, Nozliya Normurodova, Margarita Galiyeva, Dusmamat Kulmamatov, Venera Qayumova, Abdi Mamatov, Nodirbek Jo'raqo'ziyev.

Tahrir hay'ati

Frederik Bressand (Fransiya)	Shohid Taslim (Hindiston)
Ingeborg Baldauf (Germaniya)	Dilsara Kamil (Kanada)
Homid Abbos Xon (Saudiya Arabistoni)	Almaz Ulvi (Ozarbayjon)
Murtazo Sayidumarov (O'zbekiston)	Vohid Turk (Turkiya)
Rochelle Almeida (AQSH)	Tolib Yildirim (Turkiya)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Abdolvahab Qora (Turkiya)
Valeriy S. Xan (O'zbekiston)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Xisao Komatsu (Yaponiya)	Mustafa Kachalin (Turkiya)
Gurer Gulsevin (Turkiya)	Dilorom Ashurova (O'zbekiston)
Ingyong O (Janubiy Koreya)	Dilnoza Duturayeva (O'zbekiston)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Sulton Normamatov (O'zbekiston)
Ashirbek Mo'minov (Qozog'iston)	Rustam Suleymanov (O'zbekiston)
Shodmon Vohidov (Tojikiston)	Anton Vang (Xitoy)
Darya Jigulskaya (Rossiya)	Ishtvan Zimoniy (Vengriya)
Timur Xo'jao'g'li (AQSH)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)

Jurnal tahririyat jamoasining barcha a'zolari ixtiyoriy ishtirok etish uchun imzolangan a'zolik arizasi asosida jalb etiladi. Arizalarning asl nusxasi tahririyatda saqlanadi.

Jurnal va undagi barcha ma'lumotlar mualliflik huquqi bilan himoyalangan. Mualliflik huquqi chegarasidan tashqarida bo'lgan ruxsatsiz har qanday foydalanish taqiqlanadi hamda tegishli jazo qo'llaniladi. Bu, ayniqsa, ma'lumotlarni elektron tizimlarda nusxa ko'chirish, tarjima qilish, saqlash va qayta ishlash uchun tegishlidir. Kitoblarni e'lon qilish uchun taqriz va boshqa masalalar bo'yicha muharrirga murojaat qiling.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

103 Yusuf Xos Hojib ko'chasi, Yakkasaroy tumani, Toshkent, O'zbekiston.

Email: editor_uzlc@gmail.com

Website: www.uzlc.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shukhrat Sirojiddinov
Deputy editor in Chief: Zaynabiddin Abdirashidov
Executive secretary: Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Bahtiyor Nazarov, Naim Karimov, Nizomiddin Makhmudov, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Nurboy Jabborov, Bahtiyor Mengliev, Uzoq Juraqulov, Ulugbek Hamdamov, Kasimbay Mamurov, Gaybulla Babayarov, Karomat Mullakhodjaeva, Nozliya Normurodova, Margarita Galieva, Dusmamat Kulmamatov, Venera Kayumova, Abdi Mamatov, Nodirbek Jurakuziev.

Editorial Committee

Frederique Bressand (France)	Shahid Tasleem (India)
Ingeborg Baldauf (Germany)	Dilsara Kamil (Kanada)
Homid Abbas Khan (Saudi Arabia)	Almaz Ulvi (Azerbaijan)
Murtazo Sayidumarov (Uzbekistan)	Vahid Turk (Turkey)
Rochelle Almeida (USA)	Talib Yildirim (Turkey)
Akram Habibullaev (USA)	Abdolvahab Kara (Turkey)
Valeriy S. Khan (Uzbekistan)	Tanju Seyhan (Turkey)
Hisao Komatsu (Japan)	Mustafa Kachalin (Turkey)
Gurer Gulsevin (Turkey)	Dilorom Ashurova (Uzbekistan)
Eunkyung Oh (South Korea)	Dilnoza Duturaeva (Uzbekistan)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Sulton Normamatov (Uzbekistan)
Ashirbek Muminov (Kazakhstan)	Rustam Suleymanov (Uzbekistan)
Shodmon Vohidov (Tajikistan)	Anton Wang (China)
Daria Zhigulskaya (Russia)	Ishtvan Zimoniy (Hungary)
Timur Kocaoglu (USA)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)

All the members are involved on the basis of a signed membership application for voluntary participation in the editorial team of the journal. The original applications are stored in the editorial.

This journal and all contributions contained therein are protected by copyright. Any use beyond the limits of copyright law without the permission of the publisher is forbidden and subject to penalty. This applies particularly to reproductions, translations and storage and processing in electronic systems. On matters of announcement of books for review etc. please contact the Editor. Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: editor_uzlc@gmail.com

Website: www.uzlc.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Эльчин Али оглы Ибрагимов

К вопросу латинского алфавита казанских татар 6

Guli Ismoil qizi Ergasheva

Genderga oid terminosistemaning rivojlanishi: performativ funktsiya 28

Adabiyotshunoslik. Tarjimashunoslik

Ra'no Tohirovna Toshniyozova

Sinergetikaning badiiy asarlarni tadqiq etishdagi ahamiyati 41

Din. Falsafa. Ilohiyot

Jafar Muhammadiyevich Xolmo'minov

Vahdat ul-vujud falsafasi va Naqshbandiya tariqati:
transformatsion jarayonlar va o'ziga xos jihatlar 59

Etnologiya. Etnografiya. Antropologiya

Feruza Muxtarovna Hayitova

Ziyoratgoh va qadamjolarida o'tkaziladigan marosimlar:
an'anaviylik va transformatsion jarayonlar 72

San'at

Зухра Ибрагимовна Рахимова

Декоративное оформление страниц восточных рукописей..... 84

Baxtiyor Shokirovich Ashurov

Najmiddin Kavkabiyning ilmiy merosi99

CONTENT

Linguistics

Elchin Ali oqli Ibragimov

On the Question of Latin Alphabet of the Kazan Tatars 6

Guli Ismoil qizi Ergasheva

The Development of Gender Term System: Performative Function.....28

Literature. Translation

Ra'no Tohirovna Toshniyozova

The Importance of Synergetics in the Study of Fiction 41

Religion. Philosophy. Theology

Jafar Mukhammadievich Kholmuminov

The Philosophy of Wahdat ul-Wujood (the unity of being) and
Naqishbandism: Transformation Processes and Specific Features58

Etnology. Ethnography. Antropology

Feruza Muxtarovna Hayitova

Conducted in Shrines and Sanctuaries Rituals: Traditionalism and
Transformative Processes72

Art

Zukhra Ibragimovna Rakhimovna

Decoration of Pages of Eastern Manuscripts 84

Bakhtiyor Shokirovich Ashurov

Scientific Heritage of Najmiddin Kavkabiy99

Din. Falsafa. Ilohiyot
Religion. Philosophy. Theology

Jafar Muhammadiyevich Xolmo‘minov

(Toshkent, O‘zbekiston)
jafar@navoiy-uni.uz

Vahdat ul-vujud falsafasi va Naqshbandiya tariqati: transformatsion jarayonlar va o‘ziga xos jihatlar

Abstrakt

Tasavvuf falsafasi Hakim at-Termiziy qarashlaridan ta’sirlangan buyuk faylasuf, ilohiyotshunos, shoir, irfon falsafasining yirik nazariyotchilaridan biri, Musulmon Sharqida “Shayx ul-akbar” – “Eng ulug‘ shayx” nomi bilan tanilgan Muhyiddin ibn al-Arabiy (m. 1165-1240)ning teosofik ta’limoti orqali o‘zining yuksak cho‘qqisiga ko‘tarildi. Ibn al-Arabiyning “Vahdat ul-vujud” – borliqning birligi va Komil Inson haqidagi nazariyalari butun Musulmon Sharqini qamrab oldi va G‘arb faylasuflarining qarashlariga ham ijobiy ta’sir yetkazdi. Shu jumladan, tasavvuf ta’limoti tarixida Xoja Yusuf Hamadoniy va Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy (1103-1218) tomonidan asos solinib, “Xojagon tariqati” nomini olgan, so‘ng Xoja Bahouddin Naqshband (1318-1389) tomonidan rivojlantirilib, “Naqshbandiya” nomini olgan va butun Movarounnahr va Xuroson mintaqalarini ma’naviy jihatdan birlashtirgan ta’limot ham Ibn al-Arabiyning “Vahdat ul-vujud” falsafasi ta’siridan chetda qolmagan. Xoja Muhammad Porso Buxoriy, Xoja Ubaydulloh Ahror Valiy, Mavlono Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Xoja Maxdum A‘zam va Ahmad Sarhindi kabi Naqshbandiylikning yirik vakillari va mutafakkirlari “Vahdat ul-vujud” g‘oyalarini rivojlantirganlar.

Kalit so‘zlar: Islom falsafasi, tasavvuf, irfon falsafasi, vahdat ul-vujud falsafasi, Haq taolo, Ibn al-Arabiy, Naqshbandiya, borliq, Mutlaq vujud, ta’limot, g‘oya, ta’sir, transformatsiya, o‘ziga xoslik.

Muallif haqida: *Jafar Muhammadiyevich Xolmo‘minov* – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.

Iqtibos uchun: Xolmo‘minov J.M. 2019. “Vahdat ul-vujud falsafasi va Naqshbandiya tariqati: transformatsion jarayonlar va o‘ziga xos jihatlari”. *O‘zbekiston: til va madaniyat* 3: 58-71.

“Vahdat ul-vujud” falsafasi nima?

Ibn al-Arabiyning ba’zi bir qarashlarini xristianlik e’tiqodidan olingan, degan olimlar va tadqiqotchilar ham bor. Ayniqsa, uning taslis ahli (muqaddas uchlikka e’tiqod qilguvchilar), ya’ni nasroniylarning Ab (ota), Ibn (o‘g‘il) va Ruh ul-quds (Muqaddas ruh) ga e’tiqod qilishlarini qo‘llab-quvvatlashi va buni ham tavhidning bir turi – “tavhidi murakkab”, deb atashi kabi ayrim holatlar ba’zi bir islom ulamolari va G‘arb tadqiqotchilarida shubha uyg‘otgan (Аммо, унинг фикрича, бу тавҳид ваҳдоният юзасидан эмас, балки фардоният юзасидандир) [Арабий 1392, 777]. Jumladan, ispan sharqshunosi M. Asin Palagios uning ta’limotini nasroniylashtirilgan (xristianlashtirilgan) islom, deya baholagan.

Gap shundaki, Shayx ul-akbar Muhyiddin ibn al-Arabiy ham hijriy-qamariy 560-yilda (milodiy-1165) Ispaniyadagi Andalusiya vohasining Mursiya shahrida tavallud topgan. Otasi Ali ibn Muhammad vafotidan so‘ng amakisi Ahmad ibn Muhammad tarbiyasi ostida kamolga yetgan va G‘arbiy Yevropa sharoitida tabiiyki, yetarli darajada xristianlik ta’limotidan ham xabardor bo‘lgan.

Ibn al-Arabiyning vahdat ul-vujud haqidagi ta’limotini bir tomondan ash‘ariya kalom falsafasining yirik vakili Imom Faxr Roziy nomi bilan mashhur bo‘lgan Muhammad ibn Umar Ash‘ariy (h.q. 544-604), Suhravardiya tariqatining asoschisi Shahobiddin Abu Hafs Umar ibn Muhammad Suhravardiy Shofe‘iy (h.q. 539-633), Ibn Najjor nomi bilan mashhur bo‘lgan shofe‘iy mazhab muhaddis Abu Abdulloh Muhibiddin Muhammad ibn Mahmud Shofe‘iy, shofeiy mazhabidagi faqih Abu Abdulloh Muhammad ibn Yahyo Shofe‘iy Dubaysiy Vositiy (h.q. 558-637), Shayx Najmiddin Kubro izdoshlaridan Sa‘diddin Muhammad ibn Muayyad ibn Abdulloh ibn Ali ibn Hammuya (h.q. 587-650), Ibn Abbor nomi bilan mashhur bo‘lgan muhaddis va faqih Muhammad ibn Abdulloh Abu Bakr Quzo‘iy Balansiy (h.q. 595-658), faqih Aziziddin Abdulaziz ibn Abdussalom (h.q. 578-660), tarixchi va jo‘g‘rofiydon olim Abu Abdulloh Zikriyo ibn Mahmud (h.q. 605-682), Majdiddin Muhammad ibn Ya‘qub Firuzobodiy (h.q. 727-811), Shayx Abulhasan Ali ibn Ibrohim ibn Abdulloh Qoriy Bag‘dodiy (vaf. h.q. 821), Shayx Muhammad ibn Muzafariddin ibn Muhammad Abulfath

(vaf. h.q. 926), so'fiy va ulug' faqih Abdulvahhob ibn Ahmad Ali Ansoriy Shofe'iy (Sha'roniy, vaf. h.q. 973), shi'iy faqih va mutakallim Sayyid Shahid Qoziy Nurulloh Shustariy (h.q. 956-1019) kabi o'nab mashhur mutafakkirlar va shariat ulamolari qo'llab-quvvatlagan. Sadriddin Qunaviy, Shayx Faxriddin Iroqiy, Xoja Muhammad Porso va Mavlono Abdurahmon Jomiy kabi tasavvuf ta'limotining buyuk namoyandalari tarjima va sharhlagan bo'lsalar, ikkinchi tomondan, yana bir guruh din ulamolari, mutakallim va so'fiylar qattiq tanqid qilganlar. Jumladan, eronlik mutafakkir Alouddvala Simnoniy (h.q. 659-736) Ibn al-Arabiyning "Futuhot ul-Makkiya" nomli asariga hoshiya (izohlar) yozib, Shayx ul-Akbarning vahdat ul-vujudiy qarashlari, jumladan, Haq Taoloni "Mutlaq Vujud" deb atashini qoralagan [Жаҳонгирий 1375, 526.].

Muhyiddin ibn al-Arabi islom tarixida boy ilmiy-adabiy meros qoldirgan eng buyuk mutafakkirlardan biri hisoblanadi. Abdulvahhob Sha'roniy uning asarlari sonini 400dan ortiq deb bilsa, Jomiy ularning sonini 500dan ortiq deydi [Шаъроний 1343, 8; Жмий 1337, 546]. "Hadyat ul-orifiyn" muallifi esa Ibn al-Arabiyning 475ta asarini sanab o'tadi [Бағдодий 1951, 114-121.]. Olmon sharqshunosi Karl Brokkelmanning aniqlashicha, ularning soni 150 jildni tashkil etadi [Arabischen Litteratur, 571-582]. Eronlik tasavvufshunos olim Muhsin Jahongiriy esa Ibn al-Arabiyning 511ta asarining ro'yxatini keltiradi [Жаҳонгирий 1375, 108-134].

Nima bo'lgan taqdirda ham Ibn al-Arabiyan boy ilmiy va adabiy meros qolgan va bu ma'naviy merosning katta bir qismi tasavvuf va irfon, kalom (ilohiyot), falsafa, tafsir, tarix, axloq va fiqh ilmlariga tegishli. Ibn al-Arabi yaxshi shoir ham bo'lgan, ishqiy-irfoniy g'azallar va qit'alaridan tarkib topgan devoni – "Tarjumon ul-ashvoq" bilan shoir sifatida ham katta shuhrat qozongan.

Ibn al-Arabiyning XIII asrgacha yashab, ijod etgan izdoshlari va ixlosmandlarining barchasi turli fiqhiy mazhablar va turli irfoniy tariqatlarga mansub bo'lganlar. Shu holatning o'zi ham Ibn al-Arabiyning biron-bir fiqhiy va aqidaviy mazhab doirasida chegaralanmaganidan darak beradi. Aks holda turli mazhab va fiqralarga mansub bo'lgan orif va mutafakkirlar uning qarashlariga qiziqmagan bo'lur edilar.

Ibn al-Arabi har bir fiqhiy va kalomiy masalani irfon falsafasi mezonlari asosida o'lchaydi, qaysi masalada bo'lmasin, inson tafakkuri va ichki hissiy qobiliyatlarining yuksakligini namoyish etishga harakat qiladi. Bu holat ayniqsa, uning Sharq-u G'arbda mashhur bo'lib ketgan asarlari – "Fusus ul-hikam" va "Futuhot ul-

Makkiya” misolida yaqqol ko’zga tashlanadi. Shuni ham ta’kidlash lozimki, islom falsafiy-irfoniy tafakkuri tarixida biror kitob “Fusus ul-hikam”chalik mashhur bo’lgan emas. Bu kitob, islom falsafiy tafakkuri tarixida katta yangilik, hatto, aytish mumkinki, fikriy inqilob bo’lganligi uchun ham o’rta asrlarda olimlar o’rtasida qizg’in bahs-munozara va sharh-u talqinlarga sabab bo’ldi. Jumladan, buyuk mutafakkir, shoir, irfon falsafasining XV asrdagi yirik namoyandasi – Mavlono Abdurahmon Jomiyning diniy va falsafiy-irfoniy qarashlari, garchi hanafiya mazhabi va naqshbandiya tariqati chizig’i bilan chegaralangan bo’lsa-da, ma’lum darajada Ibn al-Arabiy ta’limoti bilan uyg’unlashgan shaklda namoyon bo’ladi.

Ibn al-Arabiy ta’limotida “vujud” (Borliq) bilan “Olam” ikki alohida kategoriya hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, olam vujud bo’lolmaydi. Demak, u Mutlaq Vujuddan bir narsadir: “Olam Haqning ayni o’zi emas. U butunlay Haq vujudida zohir bo’lgan bir narsadir” [Арабий 1392, 227].

Ahli sunna val-jamo’a e’tiqodiga ergashuvchi ash’ariy mutakallimlar “Vujud” bilan bog’liq tushunchalarni quyidagicha izohlaydilar:

1. Vojib ul-vujud – Alloh taolo mavjudligining zarurligi.
2. Mumkin ul-vujud – “Mumkin” sanalgan vujudlarni Alloh yaratmasa ham bo’lard, ammo yaratdi.
3. Mumtane’ ul-vujud – mavjud bo’lishi mumkin bo’lmagan vujud. Ya’ni, Allohning sherigi mavjud bo’lishi mumkin emas.

Ibn al-Arabiy ta’limotidagi “Vojib al-vujud” tushunchasi “Vujud” kategoriyasi kabi Sharq aristotelizmi namoyandalari – Forobiy, Ibn Sino va Xayyom falsafasidagi “Vojib ul-vujud” kategoriyasi bilan ma’nodosh, ammo ko’proq diniy-irfoniy ma’no va mazmun kasb etgan.

Aksar vahdat ul-vujudchi olimlar nuqtai nazaridan, Alloh taolo borliqdagi mavjudotlarni yo’qdan bor qilgan emas, balki O’zidan yaratgan. Ammo ahli sunna val-jamoat mutakallimlari nuqtai nazaridan, Alloh taolo olamdagi barcha mavjudotlarni yo’qdan bor qildi, ya’ni yo’qdan yaratdi.

Ibn al-Arabiy va uning izdoshlari talqin etagan vahdat ul-vujud falsafasi olamdagi barcha mavjudotlar – moddiy va nomoddiy, jonli va jonsiz ashyolar birlashib, butun bir Mutlaq Vujudni tashkil etadi, degan fikrga asoslangan ta’limot emas. Aksincha, vahdat ul-vujud ta’limoti Borliq yagona mavjudlikdan iborat, bu yakka-yagona mavjudlik Allohdir, degan fikrga asoslangan. Ya’ni, bu ta’limotning negizida shirk yoki dahriylik emas, balki tavhidning eng oliy namu-

nasiyotadi. Boshqacha aytganda, "Vaahdat ul-vujud nazariyasigako'-ra, olam Mutlaq Zoti mukarram – Haq taoloning o'z husnu jamoli, qudrat va sifatlarini namoyon etish istagidan paydo bo'lgan. Ya'ni, Haq taolo o'z-o'zini tanish uchun Borliqni yaratdi. Borliq go'yo ko'zgu bo'lib, Haq jamoli, ilmu hikmati unda aks etadi, jilolanadi. Shundan ushbu ta'limotning muhim qismi bo'lgan tajalliy g'oyasi ham kelib chiqadi. Mutlaq Ruh – olamning joni, olamdagi barcha o'zgarish, qonuniyatlar, ziddiyat va kelishuvlar, moddaning harakati, jismlarning o'zaro aloqa-munosabati, muvozanat va nizomlar, tartib-qoidalar, o'sish-ulg'ayish va yemirilish – hamma-hammasida Haq taoloning ishtiroki, amri bor. Borliqning eng kichik zarrasidan koinotgacha jami ashyolar Mutlaq Ruh nazorati, boshqaruvi ostidadir. Shu asosda butun olam yagona Ruhi Mutlaqning ishtiroki bilan mavjud, borliq esa Ruhi Mutlaqqa bog'liq holdagina mavjud. Demak, haqiqiy va abadiy vujud Uning O'zi, moddiy olam esa – abadiy emas, u foniy yoki Mutlaq Ruhning xayoli, xolos" [Комилов 2008, 3].

Ibn al-Arabiyning vaahdat ul-vujudiy ta'limotiga binoan, Ilohiy Nur o'z tabiat va taqozosiga ko'ra ashyolarga bir xil holatda, bir xil rangda tajalliy etadi. Bu o'rinda tabiiyki shunday bir savol tug'iladi: xilma-xillik, va rang-baranglikdan xoli bo'lgan Ilohiy Nur qanday qilib bir vaqtning o'zida turli ashyolarda xilma-xil ranglarda aks etishi mumkin?

Ibn al-Arabiy va uning izdoshlari bu savolning javobini mantiq va tasavvur doirasida sig'dirish maqsadida tabiiy hodisa – Quyoshning nur sochish holatiga murojaat etib, olamdagi mavjud ashyolarni shishalarga o'xshatganlar. Tabiiyki, Ilohiy Nur aql-idrok bilan tasavvur qilib bo'lmaydigan bir rangda – o'zining yagona rangida ustuvor va sobit turadi. U juda hassos va nozik, ammo o'zgaruvchan emas. U na sharoitga qarab o'zgaradi, na sharoit uni o'zgartira oladi. Ammo shishalar har xil bo'lishi mumkin. Ularning rangi, hajmi, shakli, joyi, tabiati, xullas, xususiyat va mohiyati bir-biridan farq qiladi. Demak, ularda Ilohiy Nurdan taraladigan fayzni qabul qilish imkoniyati va qobiliyati ham har xil bo'lishi mumkin ekan.

Ibn al-Arabiy falsafasidagi "A'yoni sobita" haqidagi nazariya qadimgi yunon faylasufi – Aflotun (Platon)ning "g'oyalar dunyosi" haqidagi nazariyasini eslatadi. Aflotun o'zining "Timey" nomli asarida hech qachon o'zgarmaydigan, ammo mavjud narsalar bilan birga har doim o'zgaradigan, biroq hech qachon mavjud bo'lmagan narsalar ham bor, deb ta'kidlaydi. U "hech qachon o'zgarmaydigan" va shu bilan birga "har doim o'zgaradigan", ammo aslida "mavjud

bo'lmagan" narsalarni "Eydos", ya'ni, "g'oyalar" deb ataydi. Aflotunning ontologik ta'limotida "g'oya" yuqori va quyi ko'rinishlarga ajratiladi. Yuqori "g'oya" o'zida "ezgulik" tushunchasini aks ettiradi. Aflotun ta'limotida "g'oya barcha narsalarning ibtidosidir, boshidir. G'oyani mavjudlik, narsalarning ibtidosi deb qarash, keyinchalik diniy qarashlarga asos bo'lgani uchun ham ba'zi din arboblari Plattonni avliyo darajasiga ko'tardilar, uning yuqori, oliy g'oya nazariyasini esa teologik ta'limotga aylantirdilar" [Farb falsafasi 2004, 101].

Aflotun "g'oya"lar haqidagi ta'limotni gnoseologik nuqtai nazardan ham ko'rib chiqib, inson "oliy g'oyani bila olmaydi, uni Xudo bilishi, ilohiy aql-idrok etishi mumkin. Ilohiy aql esa ilohiy hayotni, ilohiy kuch mavjudligini taqozo etadi. Shuning uchun Xudo nafaqat ilohiy kuch, u eng yetuk ezgulikdir. Xudo ezgulikning aynan o'zidir. U narsalarni, quyi g'oyalarni, borliqni ezgulikka yo'naltirib turadi", degan xulosaga keladi [Farb falsafasi 2004, 101]. Shunday qilib, "Platon o'z ta'limoti Xudo bilan bog'lanishini ochiq qayd etadi. Faylasufning Xudoni mavjudlikning markaziga qo'yishi, hamma narsada uning ishtiroki, amri, hamisha borlig'ini asoslashga intilishi keyinchalik xristianlikka qo'l keldi" [Farb falsafasi 2004, 101]. Xullas, islom falsafasidagi "a'yoni sobita" va Aflotun ta'limotidagi "g'oya"lar haqidagi nazariya o'rtasidagi o'xshashliklar yo'q emas. Masalan, "g'oya"larning o'zgarmasligi ularning bir-biri bilan bog'langanligi va bir butunni tashkil etishi yoki "yuqori oliy g'oya" (taqqoslash uchun: "a'yoni sobita") va "quyi g'oya" ("a'yoni sobita"ning belgilari va alomatlarini) kabi tushunchalar bu ikki nazariya o'rtasidagi o'xshashlikdan darak beradi [Skirbekk, Gilye 2002, 93]. Ammo bu umumiyatlarga asoslanib, ularni aynan bir narsa deb ham bo'lmaydi. Aks holda, Aflotunning "g'oya"lar haqidagi nazariyasini islom falsafasidagi "a'yoni sobita" nazariyasining ibtidoiy ko'inishi deb atashga to'g'ri keladi. Nima bo'lgan taqdirda ham, Aflotun va yangi aflotunchilarning (neoplatonizm) Xudo va borliq haqidagi qarashlari G'arb falsafasida yangi burilish yasab berdi va falsafa tarixida ilk panteistik qarashlarning shakllanishiga turtki bo'ldi. Jumladan, IX asrning buyuk mutafakkiri, sxolastik falsafaning yirik namoyandasi Eriutena o'zining panteizm ruhi bilan sug'orilgan, lekin falsafiy realizm yo'nalishida yozgan asari – "Tabiatning bo'linishi haqida" nomli asarida borliq va yo'qlik tushunchalarini "Tabiat" tushunchasiga kiritib, uni to'rtga bo'ladi:

1. Yaratilmagan va yaratuvchi tabiat – Xudo. U mutlaq, bar-kamol bo'lgani bois uni bilib bo'lmaydi.

2. Yaratilgan va yaratuvchi tabiat ilohiy aql yoki logosdir.

Unda ma'no va yaratuvchanlik xarakteri mujassamlashgan.

3. Yaratilgan va yaratmaydigan tabiat. Bu makon va zamonda mavjud bo'lgan narsalar olamidir.

Xo'sh, islom panteizmi – vahdat ul-vujud falsafasi asoschisi Ibn al-Arabiy qarashlari ham o'rta asrlar Yevropa faylasuflarining qarashlarida o'z aksini topganmi yoki hech bo'lmasa, ularda qandaydir qiziqish uyg'ota olganmi? Masalaning ikkinchi tomoni ana shunda. Yuqorida aytib o'tilganidek, Ibn al-Arabiy Andalusiyada tug'ilib, tarbiya topadi, arab-ispn madaniyatidan bahra oladi, tabiiyki, xristianlik dini va Yevropadagi mavjud falsafiy tafakkur tarixidan ham bahramand bo'ladi. Uning tafakkuridagi G'arb olami diniy-falsafiy tafakkur tarziga o'xshashligining siri ham ana shunda bo'lsa kerak. Boshqa jihatdan, lotin va boshqa Yevropa tillariga tarjima bo'lgan arab-islom ma'naviy merosi namunalari qatorida Ibn al-Arabiyning ba'zi bir asarlari (yo asarlaridan parchalar) ham bo'lishi ehtimoldan xoli emas edi. Shunday bo'lsa kerakki, Dante o'zining "Ilohiy komediya" sida qaysidir ma'noda Ibn al-Arabiy uslubida fikr yuritadi. Jumladan, Jannatning turli osmonlarida eng yaxshi, olijanob insonlarni joylashtiradi, har bir sayyorani biron-bir payg'ambar yoki avliyoga nisbat beradi. Aynan shu usul undan oldin Ibn al-Arabiyning "Fusus ul-hikam"ida ham ishlatilgan. U "Fusus ul-hikam"ning har bir "fass"ini Qur'oni karimda zikr etilgan muayyan bir payg'ambar ismi bilan bog'laydi. Piko Della Mirandola esa o'zining "Mavjudlik va birlik" nomli asarida ba'zi bir panteistik g'oyalarni ham bayon etib o'tadi. Pikoning panteistik qarashlari markazida "Xudo va olam bir butun ajralmas borliqdir", "Xudo tabiatdan tashqarida mavjud bo'lmaydi, u doimo tabiat bilan birga bo'ladi", "Xudo olamning oxirgi, yakunlovchi mohiyatidir, degan g'oya yotadi [Скирбекк, Гилье 2002, 284]. Ibn al-Arabiyning panteizmi, ya'ni, vahdat ul-vujudi to'rt bosqichda talqin etiladi:

1. Haq taolo Yagona va Mutlaq Vujudir.
2. Haq taolodan o'zga narsalar aslida mavjud emas. Ya'ni, olam, undagi mavjudotlar va ashyolar, insoniyat olami va hokazoni mavjudlik deb bo'lmaydi. Chunki ularning mavjudligi Mutlaq Vujudning mavjudligiga bog'liq.
3. Olamdagi barcha mavjudotlar, jumladan, insoniyat olamining borlig'i ham aslida Haq taoloning borlig'idir.
4. Olam va undagi mavjudotlar aslida hech qanday borliq bo'lolmaydi, chunki ular Haq taoloning tajalliysi (emanatsiyasi) natijasida yuzaga kelganlar.

Ko'rinib turganidek, Pikoning panteistik qarashlari Ibn al-

Arabiy falsafasi darajasida sistemalashtirilgan, muayyan va tartibga solingan nazariy asosga ega bo'lmasa-da, ma'lum darajada uning xulosalashtirilgan hamda uzuq-yuluq holda anglashilgan variantini eslatadi.

Naqshbandiylik va "Vahdat ul-vujud" falsafasi

Naqshbandiya ta'limotida Ibn al-Arabiyning "Vahdat ul-vujud" falsafasiga ilk jiddiy e'tibor qaratgan kishi yirik naqshbandiy shayx, ulug' mutafakkir Xoja Muhammad Porso (vaf. h.q. 865/ m. 1420 y.) bo'ladi. U Vahdat ul-vujud g'oyalarini o'zining "Fasl ul-xitob" va "Sharhi Fusus ul-hikam" nomli asarlarida qo'llagan hamda rivojlantirishga harakat qilgan. Undan so'ng Naqshbandiya tariqatining o'z davridagi piri komili Xoja Ahror Valiy (1404-1490) ushbu ta'limotga diqqat-e'tibor qaratib, Ibn al-Arabiyning ba'zi bir g'oyalariga izoh bergan va uning qarashlarining Jomiy tomonidan sharhlanishiga moyillik ko'rsatgan. Naqshbandiya ta'limotining yirik vakili, ulug' mutafakkir va shoir Mavlono Abdurahmon Jomiy (1414-1492) esa butun umri davomida Ibn al-Arabiy falsafiy qarashlarini chuqur o'rganib, o'zining qator ilmiy asarlari bilan ularni Naqshbandiya ta'limoti doirasida to'g'ri talqin qilinishini ta'minlagan.

Vahdat ul-vujud falsafasi o'ta murakkab, chigal, shuningdek, bahs-munozaralarga boy bo'lgan ta'limot sifatida Naqshbandiya ta'limoti namoyandalari tomonidan qanday bo'lsa, o'shanday qabul qilingan, deb bo'lmaydi. Naqshbandiylarni ushbu ta'limotning ayrim jihatlarigina qiziqtirgan. To'g'rirog'i, ularning diniy-mazhabiy, g'oyaviy-falsafiy qarashlariga mos kelishi mumkin bo'lgan jihatlar iqtibos qilingan. Naqshbandiya ta'limotining vahdat ul-vujud falsafasiga munosabati doirasida transformatsion holatlar va o'ziga xos jihatlar asosan quyidagi masalalarda namoyon bo'ladi:

1. Xoja Bahouddin Naqshbandning "Avrod" idagi g'oyalar Ibn al-Arabiyning "Hamma narsa Udir" degan g'oyasiga mos keladi.

2. *Kalom ilmi va falsafani qiziqtirib kelgan Alloh taoloning Zoti va sifatleri masalasi.* Ibn al-Arabiy va uning izdoshlari nuqtai nazaridan, Haq taoloning ismlari va sifatleri bir jihatdan Alloh taolo Zotidan ayri narsa, ammo boshqa jihatdan Zotning ayni o'zidir. Ya'ni, ilohiy ism va sifatning ma'nolaridagi xilma-xillik (olim - Zot, ilm - sifat; qodir - Zot, qudrat - sifat...) ularni Zotdan o'zga narsalardek ko'rsatadi. Ammo Ilohiy Zotning vohid - yakka-yagonaligi va asmoyu sifatning Undan ayri emasligi nazarda tutilsa, ismlar va sifatning Zot (Jomiy ta'biri bilan «alif») bilan aynan bir narsa ekanligi ma'lum bo'ladi.

Ash'ariya kalom falsafasi asoschisi Abulhasan Ash'ariy aqidasi ko'ra, "Sifot Uning o'zi ham emas, Undan boshqa ham emas" [Шахристониё 1387, 5].

"Ko'rinib turganidek, bu masala yuzasidan Ibn al-Arabiy va ash'ariya kalom maktablari o'rtasida ancha ixtiloflar mavjud. Ammo Jomiy, ahli sunna val-jamo'a olimi bo'lsa-da, mazkur masalada Ibn al-Arabiy nuqtai nazarini qo'llab-quvvatlab, "asmo va sifot tushunchalardagi tafovutlar jihatidan Zotdan ayri, ammo haqiqat va mohiyat jihatidan (Haq taolo vujudi vohiddir, asmo va sifot esa unga tegishli) Zotning ayni o'zidir", deydi. U "Lavoeh"da ham xuddi shu fikrni keltiradi [Жомий 1373, 69].

3. Tasavvuf ta'limotining markaziy g'oyalaridan bo'lgan "*Komil Inson*" tushunchasi.

Ibn al-Arabiy o'z ta'limotida voqeyiy (real) va hayotiy Inson, uning shaxsiy fazilat va qobiliyatlari xususida emas, balki Kayhoniy vujud kasb etgan Inson xususida fikr yuritadi. U, jumladan, "Haqiqat ul-haqoyiq" nomli asarida yaralish olamida Inson vujudini asl, boshqa mavjudotlar vujudini esa far', deb atab, buni quyidagicha izohlaydi: "Zero olamni Inson uchun yaratganlar va Inson (yaralishi) asl maqsaddir" [Арабий 1382, 11].

Komil Inson insonlarning eng afzali, botiniy va zohiriy fazilatlar bilan zamon va makon chegarasidan yuksakroq, oliyroq zotdir. Ma'rifat ahli tomonidan yakdillik bilan e'tirof etilgan bu Komil Inson Muhammad (s.a.v.), ya'ni "Haqiqati muhammadiya"dir. Komil Inson masalasi Ibn al-Arabiydan so'ng Eron va Markaziy Osiyo mutafakkirlarining diqqat markazida bo'ldi. Shayx Omiliy, Abdulkarim Geloniy va Aziziddin Nasafiyning Komil Inson haqidagi qarashlari shubhasiz, Ibn al-Arabiy ta'limotidan sarchashma oladi. Ammo ushbu mutafakkirlarning Komil Inson borasidagi qarashlari ikki xil talqinga ega:

1. Komil Inson – Kayhoniy vujud (Ibn al-Arabiy, Shayx Omiliy, Abdulkarim Geloniy).

2. Komil Inson – ham kayhoniy va voqeyiy (hayotiy) vujud (Aziziddin Nasafiy) [Комилов 1996, 143-153].

Naqshbandiy mutafakkirlar (Muhammamad Porso, Xoja Ahror Valiy, Jomiy, Alisher Navoiy)ning ilmiy-adabiy merosida esa Komil Inson haqidagi har ikkala talqinni ham kuzatish mumkin. Ularning falsafiy-irfoniy asarlarida Komil Inson Kayhoniy bir vujud, adabiy-irfoniy (dostonlari va g'azallarida) asarlarida esa ham kayhoniy va ham insoniy (yoki hayotiy) vujud sifatida g'aydalanadi.

4. *Tavhid masalasi*. Ibn al-Arabiy o'zining vahdat ul-vujudiy

nazariyasini umumislomiy tavhid bilan ayni bir narsa deb tushunadi. Shuning uchun ham u “Lo iloha illalloh” va “Lo mavjuda illalloh” o’rtasida hech qanday farq yo’q, deb biladi. Ammo Naqshbandiya ulug’lari, masalan, Jomiy bu masalani Ibn-al-Arabiy qarashlarini mujassamlashtirgan naqshbandiy orif sifatida quyidagicha izohlaydi: *“Haqiqiy nur bittadan ortiq emas va u Ilohiy nurdir. Ilohiy nur hech kim va hech narsaga mansub emas, chegaralanmagan, intihosizdir. Olam esa necha ming sifat bilan tajalliy etgan va turli ko’rinishlarda zuhur etgan Ilohiy nurdir”* [Jomiy 1373, 56].

5. *“Haq” va “xalq” tushunchalari.* Ibn al-Arabiy ta’limotida *“Haq”* (Alloh taolo) istilohi turli ta’riflar, tavsiflar va talqinlar bilan bayon etiladi. Ibn al-Arabiy gohida *“Haq”*ni *“Xalq”* (yaratilgan mavjudotlar) bilan ayni bir narsa deb tushuntirsa, gohida ularni bir-biridan ayri holda talqin etadi. Ba’zida Haqning xalqdan yuksakligi, ulug’ligini ko’rsatsa, ba’zi bir holatlarda Haqning xalq darajasiga tanazzul etishini nazarda tutadi. Natijada, u *“vahdat”* mavqeida bo’la turib, *“kasrat”* (ko’plik)dan so’zlayotgandek bo’lib chiqadi. Bunday vaziyat, ya’ni so’fiy zavq orqali kashf etadigan *“vahdat”*ni tafakkur ahli aqliy dalillar bilan iqror etadigan *“kasrat”* bilan omixtalashtirish, goh unisi, goh bunisi haqida fikr yuritish Ibn Arabiyning qarashlarida ba’zi bir chalkashliklarning vujudga kelishiga sabab bo’ladi. Buning natijasida, omma uning asl maqsadini noto’g’ri tushunadi, qol va hol ahli o’rtasidagi aqidaviy ixtiloflar kuchayadi.

Mavlono Jomiy bu masalada Shayx ul-akbar mavqeida tursa-da, *“Haq”* va *“xalq”* istilohlari xususida o’ta ehtiyotkorlik bilan mulohaza yuritadi, *“Haq”*ni *“xalq”* o’rniga yo *“xalq”*ni *“Haq”* o’rniga qo’yishdan o’zini tiyadi va umuman bu masalaga hanafiya mazhabidagi naqshbandiy bir mutafakkir sifatida yondashadi. U Haqni nurga, shu’lalarining xilma-xilligini olamga o’xshatadi va olamni Haq nurining tajalliysi ekanligini anglashni *“tavhid”* deb ataydi. Jomiy *“Haq”* va *“xalq”* tushunchalarini tavhidiy dunyoqarash asosida sharhlaydi va sharh jarayonida tavhid chizig’idan chetga chiqmaslikka harakat qiladi.

Saloh bin Muborak Buxoriyning naql qilishicha, Xoja Bahoudin Naqshband Haj ziyoratidan qaytayotib, Hirotga yetadilar. Amir Muiziddin Husayn u kishining sharafiga barchani yig’ib, suhbatlaridan bahramand bo’ladi.

Suhbat chog’ida Amir Xojadan so’raydi: *“Sizlarda zikri jahr, xilvat va samo’ yo’q ekan. Unda tariqatingiz nimaga asoslangan?”* U kishi shunday javob beradilar: *“Abdulxoliq G’ijduvoni (q) xonadonining so’zlari borki “Xilvat dar anjuman”.* Yana so’raydi:

“Xilvat dar anjuman» degani nima?” Javob beradilar: “Zohirda xalq bilan, botinda Haq bilan bo'lmoq” [Бухорий 1371, 36].

6. Naqshbandiya ta'limotida murshid va murid o'rtasidagi ma'naviy bog'lanish – robita asosida ham murid – insonning Kay-honiy vujud – Pir bilan bog'lanishi masalasi turadi. Naqshbandiya tariqatida shayxga uch xil ko'rinishda robita qilinar ekan:

Murid shayxining ro'parasida turganini tasavvur qilib, uning ikki qoshi orasiga to o'zidan (hushidan) ketgunga qadar qaraydi.

Murid o'zini shayxi suratida ko'radi va o'zidan ketgunga qadar bu holni davom ettiradi. Shu tarzda robita qilgan solik, o'z zotini shayxining zotida, sifatlarini ham uning sifatlarida foniy qilgan bo'ladi.

Shayxining xayoliy suratini ro'parasida ko'rib, uni qalbining o'rtasiga tushiradi va ko'nglini uzun va keng dahliz hisoblab, shayxini bu dahlizda yurganini va o'zi tomon kelayotganini xayolan tasavvur qiladi [Тырап 1999, 81].

Ibn al-Arabiyning fikricha, “Komil Inson Haqning ko'zgusidir. Inson mukammal oyina (ko'zgu)dir, oyinaning qabul qilib olish imkoniyatiga qarab, Haqning zuhuri (unda tajalliy etishi, jilolanishi – J.X.) ham turlicha bo'lgan” [Арабий 1382, 12]. Naqshbandiylikdagi muridning murshid chehrasini ikki qosh oralig'ida (ya'ni, juda yaqin) tasavvur etishini robitaning tasavvuriy bosqichi deb atash mumkin. Robitaning ikkinchi bosqichida murid murshidni qalban idrok eta boshlaydi: o'z qalbini Mutlaq Ruh ko'zgusi – insoniyat va koinotdagi haqiqatni o'zida mujassamlashtirgan zot – pir qalbiga bog'laydi; uni qalban sevishini his etadi; uning qalbidan ilohiy fayz oladi; uning qalbida Mutlaq Ruh jilvasini mushohada etadi. Bu holat murid qalbiga faoliyat bag'ishlaydi: uni harakatga keltiradi; go'zal his-tuyg'ular in'om etadi; bexudlik – muroqabadan lazzatlanish, mast bo'lishga yetkazadi. Jomiy ana shu holat – bexudlikni uzmasdan, iloji boricha uzoqroq davom ettirishni tavsiya etadi. Chunki naqshbandiya tariqatida ichki bexudlik (raqsu samo'siz) juda muhim sanalgan. Murid shu holatga yetganda, murshidni ham esdan chiqarib, o'zini bexudlik ixtiyoriga topshirishi kerak. Bu haqda Hazrati Xoja shunday degan ekanlar: “Maro monu xudro ba on bexudi deh” [Арабий 1382, 12]. Mazmuni: *“Meni qo'yaver, o'zingni bexudlikka bag'ishla”*.

Jomiy Ibn al-Arabiyni ta'limotidagi Inson va Xudo o'rtasidagi robita masalasini naqshbandiylik ta'limotidagi “Hush dar dam” qoidasi bilan omixta holda sharhlaydi. “Bu nisbatda (ya'ni, “Hush dar dam” bosqichida – J.X.) vujudning (joning)ga singib ketguncha davom ettirishing kerak. Tokim, sening borlig'ing o'rtadan ko'tarilib, o'zing-

ga yuzlanganingda Unga yuzlanganday, o'zing haqingda so'zlaganda Uning haqida so'zlaganday bo'lsang. Shunda "Muqayyad" "Mutlaq"ga va "Analhaq" "Huvalhaq"ga aylangay" [Жомий 1373, 85].

7. Imom Rabboniy nomi bilan mashhur bo'lgan va Hindistonda Naqshbandiya-mujaddidiya tariqatiga asos solgan Ahmad Sarhindi (vaf. 1624) vahdat ul-vujud falsafasidagi "Hamma Udir" g'oyasini "Hamma Undandir" shaklida o'zgartiradi va shu tariqa "Vahdati shuhud" nazariyasiga asos soladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Muhyiddin Ibn al-Arabiy falsafiy-diniy ta'limotining ta'siri "Andalusiyadan tortib to Indoneziyagacha butun islom olami mintaqasini o'z ichiga olgan. Ba'zi hollarda tasavvuf doirasidan ham chiqib ketib, kalom va falsafa doiralaridagi bahs-munozaralarga ham ulanib ketgan..." [Улудоғ 1384, 151]. Uning ayniqsa, vahdat ul-vujud haqidagi ta'limoti Eron va Markaziy Osiyoda keng yoyildi, ushbu mintaqaning nafaqat diniy-falsafiy tafakkuri, balki she'riyatining yuksalishi, yangi falsafiy g'oyalar bilan boyishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Xususan, qat'iy tarzda hanafiya fiqhiy mazhabi doirasida shakllangan Naqshbandiya ta'limotining nazariy-ilmiy jihatdan mustahkamlanishiga xizmat qildi. Aytish mumkinki, Ibn al-Arabiy falsafasi XIII – XVIII asrlar davomida butun Musulmon Sharqining eng kuchli dunyoqarash shakliga, hatto ayrim holatlarda hukmron diniy-falsafiy mafkurasiga va ayni paytda eng bahs-munozarali ta'limotiga aylandi.

Adabiyotlar

Geschichte Der Arabischen Litteratur Vol.1. 1937. Supplement Band by Brockelmann, C.

Бағдодий, Исмоил Пошшо. 1951. *Ҳадятул-орифийн*. 2 жилд. Истамбул. Бухорий, Салоҳ бин Муборак. 1371. *Анис ат-толибийн ва уддат ас-соликийн*. Техрон.

Гуннар Скирбек, Нилс Гилье. 2002. *Фалсафа тарихи*. Тошкент: Шарқ. Жаҳонгирий, Муҳсин. 1375. *Муҳйиддин ибн Арабий чехраи баржастаи ирфони исломий*. Техрон: Интишороти Донишгоҳи Техрон.

Жомий, Абдураҳмон. 1337. *Нафаҳот ул-унс*. Техрон.

Жомий, Нуриддин Абдураҳмон. 1373. *Лавойиҳ*. Тасҳеҳ, муқаддима ва тавзеҳоти Яе Ришар. Техрон: Асотир.

Жомий, Нуриддин Абдураҳмон. 1373. *Лавойиҳ*. Тасҳеҳ, муқаддима ва тавзеҳоти Яе Ришар. Техрон: Асотир.

Комилов, Н. 1996. *Тасаввуф ёки Комил Инсон ахлоқи*. 1-китоб. Тошкент: Ёзувчи.

Комилов, Н. 2008. "Ибн Арабий Абдураҳмон Жомий талқинида". Китобда *Жомий ва ваҳдат ул-вужуд таълимоти*, Холмўминов

- Жаъфар, 3-8. Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Муҳйиддин ибн ал-Арабий. 1392. *Ал-Футуҳот ул-Маккия*. 3-жилд. Таҳқиқ: Усмон Яхё. Миср.
- Шаъроний, Абдулваҳҳоб. 1343. *Ал-явоқит в-ал-жавоҳир*. 1-ж. Миср.
- Шайхи Акбар Муҳйиддин ибн Арабий. 1382. *Ҳақиқат ул-ҳақойиқ*. Техрон: Мавло.
- Шаҳристоний, Абулфатҳ. 1387. *Милал ва ниҳал*. 1-жилд. Қоҳира.
- Фарб фалсафаси*. 2004. Ўзбекистон Файласуфлари миллий жамияти. Тошкент: Шарқ.

Jafar Mukhammadievich Kholmuminov

(Tashkent, Uzbekistan)
jafar@navoiy-uni.uz

The Philosophy of Wahdat ul-Wujood (the unity of being) and Naqishbandism: Transformation Processes and Specific Features

Abstract

Ibn al-Arabiy Abu Bakr Muhammad is a scholar of mysticism the great philosopher, theologian, the poet, one of the greatest philosophers of the philosophy of the Irfon, influenced by Hakim At-Termizi's views, known in the Muslim East as "Sheikh ul-Akbar" – "The Greatest Sheikh" (1165-1240) reached its highest level through the theosophical teachings of God. Ibn al-Arabi's Theory of Wahdat ul-wujud - the Unity of Being and the Theory of the Perfect Man has encompassed the entire Muslim East and has had a positive effect on the views of Western philosophers as well. Also, the Tariqat (of mysticism was founded by Hodja Yusuf Hamadani and Hoja Abdul Khaliq Gijduvani (1103-1218).

The doctrine that united the regions spiritually is also influenced by Ibn al-Arabi's philosophy of Wahdat ul-wujud. The great thinkers and thinkers of Khoja Muhammad Porso Bukhari, Khoja Ubaydullah Ahror Wali, Mawlana Abdurahman Jomi, Alisher Navoi, Khoja Makhdum Agzam and Ahmad Sarhindi developed the idea of Wahdat ul-wujood with the Nakshbandism.

Keywords: Islamic Philosophy, Sufism, Irfon Philosophy, Unity Wujud Philosophy, True God, Ibn al-Arabi, Nakshbandiya, Being, Absolute Be-

ing, Doctrine, Idea, Influence, Transformation, Specificity.

About the autor: *Jafar Kholmuminov M.* – Candidate of Philosophy, assistant Professor, University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

For citation: Kholmuminov J.M. 2019. The Philosophy of Wahdat ul-Wujood (the unity of being) and Naqishbandism: Transformation Processes and Specific Features. In: *Uzbekistan: Language and Culture* 3: 58-71.

References

- Geschichte Der Arabischen Litteratur* Vol.1. 1937. Supplement Band by Brockelmann, C.
- Bagdodij, Ismoil Poshsho. 1951. *Hadjat ul-orifijn*. 2-zhild. Istambul.
- Buhorij, Saloh bin Muborak. 1371. *Anis at-tolibijn va uddat as-solikijn*. Tehron.
- Gunnar Skirbek, Nils Gil'e. 2002. *Falsafa tarihi*. Toshkent: Sharq.
- Zhahongirij, Muhsin. 1375. *Muhjiddin ibn Arabij chehrai barzhastai irfoni islomij*. Tehron: Intishoroti Donishgohi Tehron.
- Zhomij, Abdurahmon. 1337. *Nafahot ul-uns*. Tehron.
- Zhomij, Nuriddin Abdurahmon. 1373. *Lavojih*. Tasheh, muqaddima va tavzehoti Jae Rishar. Tehron: Asotir.
- Zhomij, Nuriddin Abdurahmon. 1373. *Lavojih*. Tasheh, muqaddima va tavzehoti Jae Rishar. Tehron: Asotir.
- Komilov, N. 1996. *Tasavvuf joki Komil Inson ahloqi*. 1-kitob. Toshkent: Jozuvchi.
- Komilov, N. 2008. "Ibn Arabij Abdurahmon Zhomij talqinida". Kitobda *Zhomij va vahdat ul-vuzhud talimoti*. Zhafar Holmuminov. 3-8. Toshkent: Uzbekiston Millij Jenciklopejadijasi.
- Muhjiddin ibn al-Arabij. 1392. *Al-Futuhot ul-Makkija*. 3-zhild. Tahqiq: Usmon Jahjo. Misr.
- Sha'ronij, Abdulvahhob. 1343. *Al-javohit v-al-zhavohir*. 1-zh. Misr.
- Shajhi Akbar Muhjiddin ibn Arabij. 1382. *Haqiqat ul-haqojiq*. Tehron: Mavlo.
- Shahristonij, Abulfath. 1387. *Milal va nihol*. 1-zhild. Qohira.
- Garb falsafasi. 2004. *Uzbekiston Fajlasuflari millij zhamijati*. Toshkent: Sharq.

TAHRIRIYAT ESLATMASI

“O‘zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san‘at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o‘rganish sohasini qamrab oluvchi akademik jurnal. Biz tadqiqotlarida bahs-munozarani shakllantiradigan, ilg‘or, innovatsion, konseptual jihatdan qiziqarli, original sohaviy va dolzarb mavzudagi tadqiqotlarni chop etishni maqsad qilganmiz. Jurnalda iqtisodiy tahlillar yoki siyosat bilan bog‘liq maqolalar e‘lon qilinmaydi. Maqolalarda bildirilgan fikr va qarashlar mualliflarga tegishli bo‘lib, tahririyat mualliflar fikr-mulohazalariga qo‘shilmasligi mumkin. Maqoladagi fikrlar va sharhlari uchun tahririyat javobgar emas.

Jurnal yiliga to‘rt marta nashr etiladi. Maqolalar ingliz, rus va o‘zbek tillarida bo‘lishi mumkin. Boshqa turkiy tillardagi maqolalar ham qabul qilinadi. Ilmiy maqolalar bilan birgalikda jurnalda kitob- larga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e‘lon qilinadi.

EDITORIAL NOTE

Uzbekistan: language and culture is an academic journal, publishing research in linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies. We aim to publish cutting edge, innovative, conceptually interesting, original case studies and new research, which shape and lead debates in multifaceted studies. We do not publish economic analyses or policy papers. Any opinions and views expressed in publications are the opinions and views of the authors, and the publishers are not responsible for the views/ reviews of the contributors.

The journal is published four times a year. The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcomed. In addition to research articles, the journal welcomes book reviews, literature overviews, conference reports and research project announcements.

Bichimi 70x100 1/16, Ofset bosma. “Cambria” garniturası.
Shartlı b.t. 12,75. Nashr b.t. 13.13.
Adadı 200. Buyurtma №

“ZEBO PRINTS” MCHJ bosmaxonasıda chop etıldı. Tosh-
kent shahri, Yashnobod tumani, 22-harbiy shaharcha.